



Sirdaryo viloyatida demografik holat

2026-yil yanvar-mart oylari uchun

- I. Asosiy demografik ko'rsatkichlar
- II. Doimiy aholi soni
- III. Tug'ilganlar va vafot etganlar
- IV. Nikohlar va nikohdan ajralishlar
- V. Aholi migratsiyasi
- VI. Demografik ko'rsatkichlarning uslubiy tushuntirishlari va metama'lumotlari

I. Asosiy demografik ko'rsatkichlar

2026-yilning 1-aprel holatiga Sirdaryo viloyatining doimiy aholisi soni 949,6 ming kishini tashkil etib, 2025-yilning mos davriga nisbatan 1,6 foizga ko'paygan. 2026-yilning yanvar-mart oylarida tug'ilganlar soni 4,8 ming nafarni, vafot etganlar 1,1 ming nafarni tashkil etib, tabiiy o'sish 3,7 ming kishiga teng bo'ldi. Viloyatimizga xorijiy davlatlardan ko'chib kelganlar soni 10 kishini va viloyatdan xorijga ko'chib ketganlar soni 19 kishini, qayd etilgan nikohlar 0,9 mingtani, nikohdan ajralishlar 0,4 mingtani tashkil etgan.

Doimiy aholi soni	949,6	<i>ming kishi</i>
Tug'ilganlar soni	4,8	<i>ming kishi</i>
Vafot etganlar soni	1,1	<i>ming kishi</i>
Xorijdan ko'chib kelganlar	10	<i>kishi</i>
Xorijga ko'chib ketganlar	19	<i>kishi</i>
Nikohlar soni	0,9	<i>ming birlik</i>
Nikohdan ajralishlar soni	0,4	<i>ming birlik</i>

II. Doimiy aholi soni


Sirdaryo viloyatida doimiy aholi soni 2026-yilning 1-aprel holatiga ko'ra 949,6 ming kishini tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 15,1 ming kishiga, yani 1,6 foizga ko'paydi. Doimiy yashash hududi bo'yicha shahar joylarda 408,0 ming kishi (jami aholi soniga nisbatan 43,0 %), qishloq joylarda esa 541,6 ming kishi (57,0 %) istiqomat qilmoqda. Ayollar soni 472,5 ming kishini (49,8 %), erkaklar esa 477,1 ming kishini (50,2 %) tashkil etmoqda.

Doimiy aholi soni, ming kishi (1-aprel holatiga, ming kishi)

	2025-yil	2026-yil	O'sish sur'ati, % da
Sirdaryo viloyati	934,5	949,6	101,6
Guliston sh.	102,7	104,9	102,1
Shirin sh.	19,4	19,4	100,0
Yangiyer sh.	49,4	50,4	102,0
<i>tumanlar</i>			
Oqoltin	56,8	57,6	101,4
Boyovut	142,0	144,7	101,9
Sayxunobod	84,3	85,6	101,5
Guliston	81,4	82,6	101,5
Sardoba	71,6	72,5	101,3
Mirzaobod	82,7	84,3	101,9
Sirdaryo	139,7	141,6	101,4
Xovos	104,5	106,0	101,4

Sirdaryo viloyatida 2026-yil 1-aprel holatiga ko'ra, 1 kvadrat kilometrda o'rtacha **222,1** kishi to'g'ri kelgan. Bu esa o'tgan yilning mos davriga nisbatan solishtirilganda **3,8** kishiga ortgan (2025-yil 1- aprel holatiga 1 kv.km.ga **218,3** kishi).

Aholi zichligi, 1 kv.km.ga to'g'ri keladigan aholi soni




III. Tug'ilganlar va vafot etganlar

Viloyatda 2026-yilning yanvar-mart oylarida qayd etilgan tirik tug'ilganlar soni **4813** kishini, har ming aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti **20,6** promilleni tashkil etdi. Tug'ilganlar soni joriy yilning yanvar- mart oylarida 2025-yilning mos davriga nisbatan **126** nafarga kamaygan.

Vafot etganlar soni **1121** kishini, har ming aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti **4,8** promilleni tashkil etdi. Vafot etganlar soni joriy yilning yanvar-mart oylarida 2025-yilning mos davriga nisbatan **73** nafarga ko'paygan.


Tug'ilganlar va vafot etganlar soni,



Viloyatda tirik tug'ilganlar soni **4813** kishini, shundan o'g'il bolalar soni **2526** kishini (jami tug'ilganlar soniga nisbatan **52,5** %), qiz bolalar soni **2287** kishini (**47,5**%) va shahar joylarida **2060** kishini (**42,8**%), qishloq joylarida **2753** kishini (**57,2** %) tashkil etdi.

Viloyatda vafot etganlar soni **1121** kishini, shundan erkaklar **621** kishini (jami vafot etganlar soniga nisbatan **55,4** %), ayollar **500** kishini (**44,6** %) va shahar joylarida **552** kishini (**49,2** %), qishloq joylarida **569** kishini (**50,8** %) tashkil qildi.

Tug'ilganlar va vafot etganlarning jinslar bo'yicha taqsimlanishi,




IV. Nikohlar va nikohdan ajralishlar

Viloyatda 2026-yilning yanvar-mart oylarida qayd etilgan nikohlar soni **904** birlik, har ming aholiga nikoh koeffitsiyenti **3,9** promilleni tashkil etdi. Nikohlar soni joriy yilning yanvar-mart oylarida 2025-yilning mos davriga nisbatan **30** birlikka kamaygan.

Nikohdan ajralishlar soni **426** birlik, har ming aholiga nisbatan ajralish koeffitsiyenti **1,8** promilleni tashkil etdi. Ajralishlar soni joriy yilning yanvar-mart oylarida 2025-yilning mos davriga nisbatan **50** birlikka ko'paygan.


Qayd etilgan nikohlar va nikohdan ajralishlar soni, ming birlik



Viloyatda qayd etilgan nikohlar soni **904** birlikni, shundan shahar joylarida **426** birlikni (**47,1** %), qishloq joylarida **478** birlikni (**52,9** %) tashkil etdi.

Viloyatda nikohdan ajralishlar soni **426** birlikni, shundan shahar joylarida **231** birlikni (**54,2** %), qishloq joylarida **195** birlikni (**45,8** %) tashkil qildi.

Qayd etilgan nikohlar va nikohdan ajralishlarning shahar va qishloq joylar bo'yicha taqsimlanishi, ming birlik



V. Aholi migratsiyasi


2026-yil yanvar-mart oylarida viloyat bo'yicha ko'chib kelganlar jami soni **2220** kishini, shu jumladan respublikaning boshqa hududlaridan ko'chib kelganlar **2210** kishini, xorijiy mamlakatlardan ko'chib kelganlar **10** kishini tashkil etdi.

Ko'chib ketganlar jami soni **2650** kishini, shu jumladan respublikaning boshqa hududlariga ko'chib ketganlar **2631** kishini, xorijiy mamlakatlarga ko'chib ketganlar **19** kishini tashkil qildi.

Ko'chib kelganlar va ko'chib ketganlar soni, kishi

	Ko'chib kelganlar soni			Ko'chib ketganlar soni		
	Jami	shundan:		Jami	shundan:	
		ichki	tashqi		ichki	tashqi
Sirdaryo viloyati	2220	2210	10	2650	2631	19
Guliston sh.	426	426		510	506	4
Shirin sh.	59	58	1	95	95	
Yangiyer sh.	302	295	7	247	245	2
<i>tumanlar</i>						
Oqoltin	89	89		174	173	1
Boyovut	252	252		326	326	
Sayxunobod	97	97		165	164	1
Guliston	240	240		201	201	
Sardoba	91	91		170	169	1
Mirzaobod	250	248	2	224	224	
Sirdaryo	185	185		273	263	10
Xovos	229	229		265	265	

Xorijdan ko'chib kelganlar va xorijga ko'chib ketganlar soni, kishi



VI. Demografik ko'rsatkichlarning uslubiy tushuntirishlari va metama'lumotlari

Demografik ko'rsatkichlarni shakllantirish maqsadida, Milliy statistika qo'mitasi bilan O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi va Ichki ishlar vazirligi o'rtasida ma'lumotlar elektron almashinuvi bo'yicha ushbu vazirliklarning birlamchi ma'lumotlar bazasiga integratsiya qilingan.

Demografik ko'rsatkichlarni shakllantirish uchun zarur bo'ladigan barcha zaruriy ma'lumotlar integratsiya orqali elektron shaklda olinishi sababli, alohida statistika kuzatuvi shakli tasdiqlanmagan.

Demografik ko'rsatkichlarni tavsiflovchi ma'lumotlarni shakllantirish maqsadida, statistika organlari tomonidan boshqa davlat organlari (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi va Ichki ishlar vazirligi)dan olingan aholining tabiiy harakati va aholi migratsiyasi to'g'risidagi birlamchi ma'lumotlar qayta ishlanadi.

Demografik ko'rsatkichlar bo'yicha statistik ma'lumotlar quyidagilar asosida shakllantiriladi:

- tug'ilganlik haqida dalolatnoma yozuvi;
- o'lim haqida dalolatnoma yozuvi;
- nikoh tuzilganligi haqida dalolatnoma yozuvi;
- nikohdan ajralganlik haqida dalolatnoma yozuvi;
- ko'chib kelishni statistik hisobga olish varaqasi;
- ko'chib ketishni statistik hisobga olish varaqasi ma'lumotlari.

Metama'lumot uchun havola:

<https://lib.stat.uz/uz/features/demografiya-va-mehnat/814-asosiy-demografik-ko-rsatkichlarni-shakllantirishda-fuqarolik-holati-dalolatnomalari-va-statistik-hisob-talonlari-ma-lumotnomalarini-kodlashtirish-bo-yicha-qo-llanma>

<https://lib.stat.uz/uz/features/demografiya-va-mehnat/853-asosiy-demografik-ko-rsatkichlarni-shakllantirish-bo-yicha-uslubiy-nizom-2>

Tayyorlash uchun mas'ul:
Demografiya, mehnat va gender
statistikasi bo'limi

Ijrochi:
Sh. Abdullayeva
67 236-70-00 (20-70)

Manzil:

